



Emotional Anchoring yoki hissiy bog‘lash strategiyasida yangi so‘zlar ijobiy hissiyotlar bilan bog‘lanadi. Qo‘shiqlar, o‘yinlar va qiziqarli hikoyalar orqali o‘rgatish amalga oshiriladi, natijada o‘rganishga motivatsiya ortadi. Limbik tizim faollashganda ma’lumotlar yaxshiroq esda qoladi.

Movement Integration harakat integratsiyasi sifatida TPR (Total Physical Response) metodidan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Action songs yani harakatli qo‘shiqlar hamda kinesthetic activities ya’ni harakatlarga asoslangan mashqlar qo‘llaniladi. Bu yondashuv motor korteksni faollashtiradi va harakatli xotira orqali o‘rganishni mustahkamlaydi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari

Interaktiv doska yordamida multimedia taqdimotlar tayyorlanadi va interaktiv mashqlar hamda o‘yinlar o‘tkaziladi. Ta’limiy ilovalardan keng foydalaniladi, jumladan Kahoot orqali interaktiv viktorinalar, Quizlet yordamida lug‘at va flashcardlar, Duolingo orqali gamifikatsiyalangan o‘rganish amalga oshiriladi.

Virtual Reality texnologiyasi immersiv til muhitini yaratish va virtual sayohatlar hamda ekskursiyalar uyushtirish imkonini beradi. Gamification ya’ni o‘yin elementlarini darsga kiritish orqali ball to‘plash va yutuqlar tizimi joriy etiladi, raqobat va hamkorlik o‘yinlari tashkil qilinadi. Bu zamonaviy vositalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va motivatsiyani yuqori darajada ushlab turadi.

Xulosa. Neyropedagogik yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ilmiy asoslangan va samarali metodologiyasi hisoblanadi. U miya faoliyati qonuniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini optimallashtiradi. Boshlang‘ich maktab yoshi - bu tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning sensitiv davri. 7-10 yoshda miya plastisitesi yuqori bo‘lib, yangi neyron aloqalar tez shakllanadi. Ingliz tili darslari tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar beradi. Til o‘rganish jarayonida o‘quvchilar tahlil, sintez, baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni amalga oshiradilar.

Maktablarda neyropedagogik markazlar yaratish O‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini monitoring qilish O‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish seminarlarini o‘tkazish Zamonaviy o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PQ-4708-son qarori “Ta’lim sifatini oshirish va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. Akhutina T.V. Neyropedagogika va miyaning individual xususiyatlari. – Moskva: MGU, 2019. – 256 s.
3. Farber D.A., Dubrovinskaya N.V. Miya rivojlanishining funktsional tashkiloti. – Moskva: Fiziologiya, 2018. – 412 s.
4. Jo‘raev J.J., Nurmonov A. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 288 b.
5. Halpern D. Critical Thinking Across the Curriculum. – New York: Routledge, 2020. – 384 p

TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKALI KREDITLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Turdiyev Shaxriddin Erxonovich

Tashkent International University mustaqil izlanuvchisi

E-mail: sh.turdiyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda tijorat banklarida ipotekali kreditlashning iqtisodiy mohiyati va uning moliyaviy tizimdagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Unda ipotekali kreditlashni kredit munosabatlarining alohida turi sifatida ko‘rilgan, uning huquqiy, moliyaviy va iqtisodiy jihatlarini yoritgan. Tezisdan ipotekali kreditning bank faoliyatidagi roli, ko‘chmas mulk bozori bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda aholining uy-joy bilan ta’minlanishidagi ijtimoiy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ipotekali kreditlash, tijorat banklari, ko‘chmas mulk bozori, kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, garov, ijtimoiy siyosat.

DISTINCTIVE FEATURES OF MORTGAGE LENDING IN COMMERCIAL BANKS



Turdiyev Shaxriddin Erkhonovich
Independent Researcher, Tashkent International University
E-mail: sh.turdiyev@gmail.com

Abstract: This thesis provides a scientific analysis of the economic essence of mortgage lending in commercial banks and its role within the financial system. It examines mortgage lending as a distinct form of credit relations, highlighting its legal, financial, and economic dimensions. The study substantiates the role of mortgage credit in banking activities, its interrelation with the real estate market, and its social importance in improving housing provision for the population.

Keywords: mortgage lending, commercial banks, real estate market, credit policy, financial stability, collateral, social policy.

ОСОБЕННОСТИ ИПОТЕЧНОГО КРЕДИТОВАНИЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Турдыев Шахриддин Эрхонович
Соискатель, Tashkent International University
E-mail: sh.turdiyev@gmail.com

Аннотация: В данном тезисе научно проанализирована экономическая сущность ипотечного кредитования в коммерческих банках и его роль в финансовой системе. Рассмотрено ипотечное кредитование как особая форма кредитных отношений, раскрыты его правовые, финансовые и экономические аспекты. В работе обоснована роль ипотечного кредита в деятельности банков, его взаимосвязь с рынком недвижимости, а также социальная значимость в обеспечении населения жильём.

Ключевые слова: ипотечное кредитование, коммерческие банки, рынок недвижимости, кредитная политика, финансовая стабильность, залог, социальная политика.

Ipotekali kreditlash iqtisodiy kategoriya sifatida ikki jihatdan qaraladi. Bir tomondan, u kredit munosabatlarining alohida shakli sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa tomondan esa, ipoteka krediti tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan kredit turlaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Shu ma'noda, ipotekali kreditlash moliyaviy tizimda o'ziga xos o'rin egallaydi, chunki u ko'chmas mulkni garovga qo'yish asosida kreditlashning maxsus mexanizmini shakllantiradi.

Ipoteka krediti mazmunan ipoteka operatsiyalarida ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar – kreditor (bank yoki moliya muassasasi), qarz oluvchi (jismoniy yoki yuridik shaxs) hamda ko'chmas mulk bozorining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifoda etadi. Ushbu munosabatlar qator huquqiy, moliyaviy va iqtisodiy jihatlarni qamrab oladi [1]. Xususan:

kreditor tomonidan uzoq muddatli moliyaviy resurslarni taqdim etish;

qarz oluvchi tomonidan kredit mablag'laridan ko'chmas mulkni sotib olish, barpo etish yoki rekonstruksiya qilish maqsadida foydalanish;

qarz majburiyatlari bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan ko'chmas mulk orqali kreditor manfaatlarini himoya qilish.

Ipoteka krediti shunga ko'ra, nafaqat bankning kredit siyosatidagi muhim yo'nalish sifatida, balki moliyaviy bozor infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida ham namoyon bo'ladi. Uning asosiy xususiyati – kreditning qaytarilishi ko'chmas mulk ob'ektining garovi bilan ta'minlanishi hisoblanadi. Shu bois ipotekali kreditlash tizimi rivojlangan va samarali faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish hamda qurilish sohasini rag'batlantirishda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ipotekali kreditlashni muayyan iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida emas, balki muomala jarayonida amalga oshiriladigan maxsus bitim turi sifatida ham baholash mumkin. Bunday yondashuv ipotekaning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi, chunki u ipoteka krediti bilan bog'liq jarayonlarning huquqiy va texnik asoslariga tayanadi.

Ipotekali kreditlash jarayonida tuziladigan bitimlar, avvalo, kreditor va qarzidor o'rtasida huquqiy jihatdan kuchga ega shartnomaviy munosabatlarni vujudga keltiradi. Bu munosabatlar quyidagi [2]:



huquqiy belgilar – kredit shartnomasi va ipoteka garov shartnomasi orqali tomonlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilanishi;

texnik belgilar – garov ob’ektlari hisobini yuritish, ularni baholash, shartnoma shartlarini rasmiylashtirish va davlat ro’yxatidan o’tkazish kabi amaliy jarayonlar;

iqtisodiy mazmun – bank tomonidan uzoq muddatli moliyaviy resurslarni taqdim etish, qarzдор tomonidan esa ulardan ko’chmas mulkni sotib olish, qurish yoki rekonstruksiya qilish uchun foydalanish;

kafolat mexanizmlari – qarz majburiyatlari bajarilmagan taqdirda kreditor manfaatlarini himoya qilish maqsadida garovga qo’yilgan ko’chmas mulk ob’ektidan foydalanish imkoniyati.

Shu jihatdan qaralganda, ipoteka krediti nafaqat bank kreditining uzoq muddatli turi sifatida, balki iqtisodiy munosabatlarning huquqiy jihatdan mustahkamlangan murakkab mexanizmi sifatida ham namoyon bo’ladi. Ushbu mexanizmning samarali faoliyat ko’rsatishi esa, bir tomondan, rivojlangan ko’chmas mulk bozorining mavjudligi, ikkinchi tomondan esa, ipotekali kreditlashning huquqiy asoslarining mukammalligi bilan bevosita bog’liqdir.

Bunday ilmiy yondashuv ipotekali kreditlashni faqat moliyaviy operatsiya emas, balki davlat iqtisodiy siyosati va moliya bozorining barqarorligi uchun strategik ahamiyatga ega huquqiy-iqtisodiy institut sifatida anglash imkonini beradi.

Kreditni iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilishda u, avvalo, ssuda kapitalining harakati sifatida namoyon bo’ladi. Ya’ni, kreditning mohiyatini anglashda uning vujudga kelish mexanizmi, manbalari va ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kreditning yuzaga kelishi uchun iqtisodiy asos quyidagi jarayonlarga tayanadi [3]:

kapitalning harakati – iqtisodiy munosabatlar sub’ektlari (korxonalar, davlat sektori, xususiy sektor) faoliyatida kapital doimo aylanma harakatda bo’ladi va turli shakllarda namoyon bo’ladi;

kapitalning pul shaklidagi aylanishi – ishlab chiqarish jarayonida kapital moddiy va mehnat shaklidan pul shakliga o’tadi, natijada ma’lum qism kapital vaqtinchalik bo’sh holatda qoladi;

vaqtinchalik bo’sh kapitalning shakllanishi – korxonalarda ayrim davrlarda foyda, amortizatsiya yoki boshqa moliyaviy manbalar hisobidan vaqtincha erkin pul mablag’lari hosil bo’ladi;

kapitalga ehtiyojning vujudga kelishi – boshqa sub’ektlarda esa ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsiyalarni amalga oshirish yoki aylanma mablag’larni to’ldirish zarurati tufayli qo’shimcha moliyaviy resurslarga talab yuzaga keladi.

Aynan shu holatda iqtisodiyotda qarshi harakatdagi ikki omil vujudga keladi:

Vaqtinchalik bo’sh pul mablag’larining mavjudligi.

Qo’shimcha pul mablag’lariga ehtiyojning ortishi.

Kreditning mohiyati shu ikki omil o’rtasidagi qarama-qarshilikni hal qilish jarayonida namoyon bo’ladi. U orqali vaqtinchalik bo’sh pul mablag’lari samarali yo’naltiriladi va resurslar qayta taqsimlanadi.

Shu tariqa, kredit ssuda kapitali shaklida aylanadigan, iqtisodiyotda kapitalning doiraviy harakatidan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlarni ifoda etadi. Uning vazifasi – iqtisodiy tizimda mablag’lar taqsimotini samarali tashkil qilish, kapitalning vaqtinchalik ortiqchaligini yetishmovchilik mavjud bo’lgan sohalarga yo’naltirishdir.

Bunday talqin kreditning mohiyatini nafaqat moliyaviy operatsiya sifatida, balki iqtisodiyotda resurslar harakatini ta’minlovchi va kapitalning uzluksiz aylanishiga xizmat qiluvchi iqtisodiy mexanizm sifatida ochib beradi.

Ipotekali kreditlash resurslari sifatida bir necha manbalarni keltirish mumkin [4]. Ularga:

Aholining pul jamg’armalari:

Bu omonatlar, jamg’arma hisoblari va depozitlari. Ularning uzoq muddatli qismi ipotekaga barqaror resurs bo’lib xizmat qiladi. Transaksion depozitlar tez aylanadi va uzoq muddatli kreditlar uchun past ishonch darajasiga ega.

Banklarning o’z mablag’lari:

Bu bank kapitali, saqlanadigan foyda va ichki zaxiralar. Ushbu manba kreditlarni kafolatlash va potensial yo’qotishlarni o’z zimmasiga olish imkonini beradi. Lekin kapital hajmi cheklangan va bankning jalb etish iqtidori bilan bog’liq.

Budjet tashkilotlari hisob raqamlaridagi pul mablag’lari:

Davlat va budjet tashkilotlarining banklardagi qoldiqlari vaqtinchalik yoki doimiy manba bo’lishi mumkin. Bu mablag’lar politsiya, budjet taqsimoti va siyosat talablari bilan bog’liq bo’lgan maxsus rejalar orqali qo’llaniladi. Ular kreditlarni moliyalashtirishda qo’shimcha likvidlik berishi mumkin, lekin davlat siyosatiga bog’liq.



Kapitalning pul shaklidagi qismining doiraviy aylanishi natijasida vaqtinchalik bo’shagan pul mablag’lari:

Bu korxonalarning vaqtinchalik foydasi, hisob-kitob sikllaridan kelib chiqadigan suplyuslar va boshqa o’tmichcha likvidlardir. Ular sezonal va noqonuniy xarakterga ega. Ipoteka uchun bu mablag’lar o’zgaruvchan resurs sifatida foydalaniladi.

Davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus jamg’armalarning pul mablag’lari:

Bu ipoteka agentliklari, davlat subsidiyalari va maxsus fondlarning mablag’laridir. Ular uzoq muddatli, past riskli mablag’ sifatida ipotekani qo’llab-quvvatlaydi. Davlat kafolati yoki qayta moliyalashtirish mexanizmi orqali bozorni mustahkamlaydi.

Ipotekali kreditlashning kredit munosabatlari tizimidagi o’rnini aniqlash uchun iqtisodiy fanda mavjud bo’lgan kreditni tasniflash tartiblarini umumlashtirish zarur.

Kreditlar quyidagi belgilarga ko’ra tasniflanadi [5]:

kredit munosabatlarining sub’ektlariga ko’ra;

kreditor ko’zlagan maqsadga ko’ra;

kredit mablag’larining ishlatilishi mazmuniga ko’ra.

Fikrimizcha, ipotekali kreditlashni yuqorida qayd etilgan tasniflash belgilarining har birini o’zida mujassam etgan maxsus kategoriya sifatida e’tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Ipotekali kreditlash, odatda, bank krediti hisoblanadi, ammo ipotekali kreditlash amaliyotining ishtirokchilari nuqtai-nazaridan kreditning ushbu turini xususiy va davlat krediti sifatida ham qarash mumkin.

O’zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda ipotekali kreditlashning asosiy yo’nalishi turar-joy sotib olishni moliyalashtirishdan iborat. Ipotekali kredit berish jarayoni, bir tomondan, tijorat banklari uchun iqtisodiy manfaat olish vositasi sifatida xizmat qiladi, ya’ni ular ushbu operatsiyalar orqali foiz to’lovlari shaklida barqaror daromad manbai yaratish imkoniyatiga ega bo’ladi. Ikkinchi tomondan, ipotekali kreditlar davlatning ijtimoiy dasturlarini amalga oshirish jarayonida muhim moliyaviy mexanizm sifatida namoyon bo’ladi. Bu dasturlar aholi turmush darajasini oshirish, uy-joy bilan ta’minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Mazkur jarayonda ipotekali kredit shartnomasi amalda turar-joyni xarid qilish va sotish operatsiyalarini amalga oshirishda asosiy vosita sifatida qo’llaniladi. Uy-joy xaridori bankdan kredit olib, turli to’lov muddatlari va shartlari asosida qarzini qaytarish majburiyatini oladi, uy esa kreditning garovi sifatida xizmat qiladi. Shu orqali turar-joy bozorida barqarorlik ta’minlanadi, bank tizimi esa real sektor bilan chambarchas bog’lanadi.

Shu bilan birga, ipotekali kreditlashning bunday shaklini ayrim hollarda tijorat krediti turi sifatida ham baholash mumkin. Chunki banklar bu jarayonda faqat ijtimoiy vazifani bajarib qolmay, balki o’zining moliyaviy barqarorligi va daromadini ta’minlaydi. Demak, ipotekali kreditlash ikki yoqlama ahamiyatga ega:

iqtisodiy jihatdan – banklar uchun tijorat manfaati va moliyaviy barqarorlik vositasi;

ijtimoiy jihatdan – aholini uy-joy bilan ta’minlash va davlat dasturlarini amalga oshirish mexanizmi.

Shunday qilib, O’zbekiston sharoitida ipotekali kreditlash nafaqat banklarning faoliyatida iqtisodiy natijalar beruvchi moliyaviy instrument sifatida, balki davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda ham strategik ahamiyatga ega bo’lgan kreditlash turi sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Gökhan Çolak, Art Durnev. The Real Effects of Credit Market Disruptions: Evidence from Mortgage Lending during the Financial Crisis // Journal of Financial Economics. Vol. 132, Issue 3, 2019. Scopus, ISSN: 0304-405X.
2. E.X. Jiang. Collateral Value Uncertainty and Mortgage Credit Provision // Journal of Financial Intermediation. Vol. 54, 2025. Scopus, ISSN: 1042-9573.
3. X. Zhou, Wei Sun. Mortgage Lending, Housing Prices and Economic Cycles: Evidence from China // Emerging Markets Finance and Trade. Vol. 56, Issue 12, 2020. Scopus, ISSN: 1540-496X.
4. R.A. Cole. Commercial Banks and Real Estate Lending // Real Estate Economics. Vol. 20, Issue 3, 1992. Scopus, ISSN: 1080-8620.
5. Jianhua Gang. The Impact of Asset Quality on Bank Risk Management // Asian Academy of Management Journal of Accounting and Finance. Vol. 6, Issue 6, 2021. Scopus, ISSN: 1823-4992.



6. O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MOHIYATI, MAQSADI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. (2025). *Kelajak o‘qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(2), 701-710.
7. Tursunov Ramziddin Abdixalil-o‘g‘li. (2025). JAMIYAT HAYOTIDA IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG‘UNLIGI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(4), 324-330.

СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИГА БОЛАЛАРНИ САРАЛАШ ВА ЙЎНАЛТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ

Абдуллаев Даврон Дилмуродов

Факультетлараро жисмоний тарбия ва спорт кафедра ассистенти
Захирридин Мухаммад Бобур номидаги
Андижон давлат университети

Аннотация: Мазкур мақолада спорт машғулотларига болаларни саралаш ва уларни турли спорт турларига йўналтиришнинг назарий ҳамда услубий асослари ёритилган. Болаларнинг ирсий хусусиятлари, жисмоний ва психологик ривожланиш даражалари, спорт турларининг талаблари ва уларни баҳолаш усуллари илмий жиҳатдан таҳлил қилинган.

Калим сўзлар: спорт машғулотлари, болалар спорти, саралаш, йўналтириш, жисмоний ривожланиш, психологик тестлар, педагогик методлар.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОТБОРА И НАПРАВЛЕНИЯ ДЕТЕЙ НА СПОРТИВНЫЕ ЗАНЯТИЯ

Абдуллаева Даврона Дилмуродова

Межфакультетская физкультура и спорт ассистент кафедры
имени Захириддина Мухаммада Бабура
Андижанский государственный университет

Аннотация: В данной статье освещены теоретические и методические основы отбора детей к спортивным занятиям и их ориентации на различные виды спорта. Научно проанализированы наследственные особенности детей, уровни физического и психологического развития, требования к видам спорта и методы их оценки.

Ключевые слова: спортивные тренировки, детский спорт, отбор, ориентация, физическое развитие, психологические тесты, педагогические методы.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF SELECTING AND GUIDING CHILDREN TO SPORTS ACTIVITIES

Abdullayev Davron Dilmurodov

Interfaculty Physical Culture and Sports assistant
of the department named after Zahiriddin Muhammad Babur Andijan State University

Abstract: This article covers the theoretical and methodological foundations of selecting children for sports activities and orienting them towards various sports. Children's hereditary characteristics, levels of physical and psychological development, requirements for sports, and assessment methods were scientifically analyzed.

Keywords: sports training, children's sports, selection, orientation, physical development, psychological tests, pedagogical methods.

Кириш. Жисмоний тарбия ва спорт тизимида болаларни саралаш ва йўналтириш масаласи энг муҳим йўналишлардан бири ҳисобланади. Замонавий илмий тадқиқотлар кўрсатишича, спортда юқори натижаларга эришиш боланинг индивидуал хусусиятларини эрта аниқлаш ва уларни тўғри йўналтириш билан узвий боғлиқ. Болани спорт турига йўналтиришда соғлиқ, ирсий омилар, психологик барқарорлик ва қизиқишларни ҳисобга олиш зарур.